



BO'G'IMOYOQLILAR TIPINING TASNIFI, KLASSIFIKATSIYASI VA FILOGENIYASI

Zaynobiddinov Asliddin Sirojiddin o'g'li
Andijon davlat pedagogika instituti
101-guruh talabasi

Ilyosov Ziyodbek Murtozbek o'g'li
Andijon davlat pedagogika instituti
101-guruh talabasi

Sayfutdinova Yorqinoy Yasharbek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
101-guruh talabasi

Annotatsiya: Bo'g'imoyoqlilar xilma-xil tuzulishga ega bo'lgan 2 milliondan ortiq turli sharoit muhitlarga moslashib keta oladigan turlarni o'z ichiga oladi. Ushbu sharhda bo'g'imoyoqlilarning umumiy tashqi tuzulishi tasnifi, klassifikatsiyasi va filogeniyasi berilgan.

Kalit so'zlar: bo'g'imoyoqlar, kutikula, epikutikula, skleritlar, tergit, pleyrit, sinf, turkum, sternit, parapodiy.

Abstract: Arthropods include more than 2 million species with diverse structures that can adapt to different environments. This review provides a general classification, classification, and phylogeny of arthropods.

Key words: arthropods, cuticle, epicuticle, sclerites, tergite, pleurite, class, genus, sternite, parapodium.

Аннотация: Членистоногие включают более 2 миллионов видов с разнообразным строением, способных адаптироваться к различным средам обитания. В обзоре представлены общая классификация, классификация и филогения членистоногих.

Ключевые слова: членистоногие, кутикула, эпикутикула, склериты, тергит, плеврит, класс, род, стернит, параподий.

Kirish. Bo'g'imoyoqlilar tipi juda xilma-xil tuzulishga ega bo'lgan 2 milliondan ortiq umurtqasizlarni o'z ichiga oladi va bu hayvonlar tashqi muhitning istalgan muhitiga moslashib keta oladigan turlardan iborat hisoblanadi. Ularni jazirama issiq sahrolarda, Arktika, Antarktidaning qahraton sovug'ida, okean, dengiz, chuchuk suv, tuproqda yashovchi o'simlikxo'r, tabiiy sanitar, dorivorlik (asalari), kosmopolit va o'simlik hamda hayvonlar tansida parazitlik qiladigan xususiyatga ega hayvonlardan iborat. Bu tip turlarga boyligi bilan boshqa tiplardan ustun turadi [1].

Bo'g'imoyoqlilar tanasi qalin kutikula bilan qoplangan bo'lib, bu ustki xitinni hosil qiadi. Bu xitin murakkab azotli birikmalardan iborat bo'lib, hayvonning tanasini kimyoviy va mexanik ta'sirlardan ximoya qiladi. Suvda yashovchi vakillarida kutikulasi mumsimon va yog'simon modda ishlab chiqarganligi sababli parda - epikutikula bilan qoplangan bo'ladi. Bu parda hayvon tanasidan suvni



bug'lanib ketishidan saqlaydi. Tanasi boshko'krak, qorin va ba'zi vakillarida bosh, ko'krak, qorin tarzida ajralgan bo'ladi. Boshida ko'zlari va mo'ylovlari joylashgan. Tanasi va oyoqlari bo'g'imlarga bo'lingan. Kutikula har bir tana bo'g'imida to'rtta plastinka - skleritlarni hosil qiladi. Orqa plastinkalari tergit, ikkiyon plastinkalari pleyrit va ostki qorin plastinkasi sternit deyiladi. Bo'g'imoyoqlilarning oyoqlari halqali chuvalchaglarni parapodiylaridan kelib chiqqan bo'lib, tanasiga harakatchan brikkan. Shuning uchun ham xilma-xil va murakkab harakatlar qila oladi. Ko'krak bo'limi 3-8 ta bo'g'imdan iborat bo'lib, bu bo'g'imlardan yurish oyoqlari yoki qanotlar chiqadi. Yurush oyoqlari ham bo'g'imlardan iborat bo'lib, oxirgi bo'g'imi tirnoqlar bilan tugaydi. Bu oyoqlar ham tipning tegishli sinflariga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Bog'imoyoqlilar tipi quyidagi kenja tip va siflarga bo'linadi:

Jabra bilan nafas oluvchilar kenja tipi; O'rgimchaksimonlar sinfi,

Traxeyalilar kenja tipi; Ko'poyoqlilar sinfi, Hasharotlar sinfi,

Xelitseralilar kenja tipi; Qilichdumlilar sinfi, Qisqichbaqachayonlar sinfi, O'rgimchaksimonlar sinfi,

Trilobitasimonlar kenja tipi; Trilobitsimonlar sinfi [1,2,3]

Bo'g'imoyoqlilar (Arthropoda) - umurtqasiz hayvonlar tipi. Bo'g'imoyoqlilarning ajdodi tuban tuzilgan dengiz halqali chuvalchaglari hisoblandsada, ularning bitta yoki bir necha umumiy ajdodlardan kelib chiqqanligi to'g'risidagi muammo hozirgacha uzilkesil hal etilmagan. Eng qadimgi bo'g'imoyoqlilardan trilobitasimonlar quyi kembriy qatlamlaridan boshlab uchraydi. Ordovik va silur davrida bo'g'imoyoqlilardan trilobitlar quruqlikka chiqishgan va keng tarqalgan. Toshko'mir davriga kelib kamaygan va perm, trias davrlarida qirilib ketgan. Bu o'rtada iqlim o'zgarishi natijasida uchuvchi hasharotlar va tipning boshqa vakillari paydo bo'la boshlagan. Bo'r davriga kelib jamoa bo'lib yashovchi hasharotlardan: asalarilar, chumolilar, termitlar paydo bo'lgan. Kaynazoy erasida uchishga moslashgan hasharotlar keng tarqalgan [4,5].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umurtqasizlar Zoologiyasi O.Mavlonov, Sh.Xurramov, X.Eshova
2. Muhammadiyev A.M.Umurtqasizlar zoologiyasi. Toshkent „ O'qituvchi". 1976
3. Zoologiya darslik O.Mavlonov Toshkent 2017
4. CC BY-SA 4.0
5. Biologiya darslik A.G'ofurova, A.Abdukarimov, J Tolipov, O. Ishankulov, M.Umaraliyeva, I. Abduraxmonova Toshkent 2018.